

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
Xitoyshunoslik oliy maktabi
TDSHU huzuridagi “Konfutsiy nomidagi O‘zbek-Xitoy instituti” NNT

AXBOROT XATI

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida **2026-yil 7-noyabr** kuni **“O‘zbekiston-Xitoy: tarixiy-madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar rivoji”** mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkaziladi.

Xalqaro konferensiya quyidagi sho‘balar bo‘yicha o‘tkaziladi:

- Tilshunoslik va o‘qitishning innovatsion usullari (SDG4).
- Tarix, falsafa va madaniyat.
- Tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik va manbashunoslik.
- Savdo va iqtisodiy munosabatlarnig rivoji va istiqbollari (SDG8).

Anjuman shakli: gibrid formatda.

Anjuman maqsadi va vazifalari:

- O‘zbekiston va Xitoyda ilm-fan va ta’lim tizimida innovatsiyalar hamda yangi ishlanmalar sohasida tajriba almashish;
- Xitoyshunoslik sohasida filologiya, falsafa, tarix, iqtisodiyot, sotsiologiya, lingvomadaniyatshunoslik va tarjimashunoslik masalalari yuzasidan fikr almashish;
- O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida ilmiy sohadagi xalqaro aloqalarni yanada rivojlantirishga ko‘maklashish; O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi istiqbolli hamkorlik yo‘nalishlarini o‘rganish hamda ushbu yo‘nalish bo‘yicha amaliy takliflarni ishlab chiqish;
- Xitoyshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish.

Anjuman materiallari quyidagi mavzularni qamrab oladi:

- Xitoy tilshunosligining xorijiy tillar bilan qiyosiy aspektdagi nazariy masalalari;
- Sun’iy intellektdan foydalangan holda xitoy tilini o‘qitishning innovatsion metodlari;
- Tilning lingvomadaniyatshunoslik va sotsiologiyaviy jihatlarini tadqiq etishning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari;
- O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi siyosiy-iqtisodiy hamkorlikning zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari;
- O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar;
- Xitoy Xalq Respublikasi investitsiyalarini O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb etish masalalari: loyihalar, muammolar va istiqboldagi rejalar;
- Xitoy manbalarida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi;
- Xitoy falsafasi masalalari;
- Xitoy adabiyotining mashhur asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari;
- O‘zbek adabiyotining mashhur asarlarini xitoy tiliga tarjima qilish masalalari.

Eslatma! Tezis matni tahrirlangan bo‘lishi va shakli barcha talablarga javob

berishi kerak. Talablarga javob bermaydigan tezislar anjuman materiallari to'plamiga kiritilmaydi.

Tezislar o'zbek, rus, ingliz, xitoy tillarida qabul qilinadi.

Xalqaro anjumanda ishtirok etish uchun quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

Anjumanda ishtirok etish uchun arizalar **2026-yil 1-oktabrga qadar** qabul qilinadi.

Ishtirokchilardan ma'ruza tezislarini Tashkiliy qo'mitaga **2026-yil 10-oktabrga qadar** yuborish so'raladi. Tashkiliy qo'mita taqdim etilgan materiallarga texnik tahrirlar kiritish huquqiga ega. Qabul qilinmagan yoki muallifga qaytarilmagan tezislar yuzasidan Tashkiliy qo'mita izoh bermaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

Konferensiya materiallari to'plami dekabr oyida elektron shaklda yuboriladi. Sertifikatlar esa faqat oflayn yoki onlayn shaklda ma'ruza bilan ishtirok etgan qatnashchilarga elektron shaklda yuboriladi.

Yo'l, ovqatlanish va yashash bilan bog'liq xarajatlar Tashkiliy qo'mita tomonidan qoplanmaydi.

Tezisni tayyorlashga qo'yiladigan talablar:

Tezis hajmi 1 betdan oshmasligi lozim.

Tezis matni **Times New Roman 12 pt** (satr oralig'i - 1) shriftida avtomatik defis bilan terilgan. Matnni asoslash, birinchi qatorning chekinishi hamma joyda doimiy, 1,25 sm ga teng. Sahifadagi matn chetlari chapda 30 mm, o'ngda 15 mm, yuqorida va pastda 25 mm. Sahifalar raqamlanmagan.

Tezis tuzilishi uchun talablar:

- Tezis nomi bosh harflar bilan beriladi;
- muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi, ilmiy unvoni, ish joyi, elektron pochta manzili to'liq keltiriladi;
- annotatsiya faqat ingliz tilida (qisqacha mazmuni, maqsadi va xulosalari – 50 ta so'zdan iborat);
- kalit so'z va iboralar 8-12 so'zdan iborat bo'lishi kerak;
- Tezislar xalqaro standartlar talablarigi muvofiq rasmiylashtiriladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati tezislar oxirida keltiriladi. Adabiyotlarga havolalar kvadrat qavs ichida beriladi: [Elmurodov 2011:19]. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidagi manbalar mualliflarning familiyalari bo'yicha alifbo tartibida, bir qator oralig'ida joylashtiriladi.

Anjumanda ishtirok etish uchun ariza shakli 1-ilovada keltirilgan. Fayl nomlari lotin yozuvida yozilishi va unda birinchi muallifning familiyasi ko'rsatilishi lozim. Masalan: **Karimov_A_article.**

Konferensiya tashkiliy qo'mitasining manzili:

Toshkent shahar, A. Temur ko'chasi, 20-uy. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Xitoyshunoslik oliy maktabi.

Тел.: +99890 186 77 57 Artikova Ziyoda
+99899 514 89 02 Eshpo'latov Nurali

E-mail: chinese_department@tsuos.uz

Tezisni rasmiylashtirish namunasi

IYEROGʻLIFIK YOZUVDA TUSHUNCHAVIY VA ASSOTSIATIV ASOSLARNING OʻZARO MUNOSABATI

(日 “quyosh” iyeroglifi misolida)

Karimov Akramjan Abilevich
Filologiya fanlari nomzodi, professor
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Karimov_a@gmail.com

RELATIONSHIP OF CONCEPT AND ASSOCIATIVE BEGINNING IN HIEROGLYPHIC WRITING

(by the example of the hieroglyph 日 "sun")

Karimov Akramjan Abilevich
Candidate of Philological Sciences, Professor
Tashkent State University of Oriental Studies
Karimov_a@gmail.com

Annotation. *This article considers the theoretical issues of hieroglyphic writing. In particular, the question of the relationship between the conceptual and associative principles in hieroglyphic writing. It is known that a number of Far Eastern languages used or still use hieroglyphic writing. In this regard, there is a need to clarify the point of contact of the transmitted meaning by hieroglyphs and their further participation in the creation of new hieroglyphs.*

Key words: *Hieroglyphic writing, 日 ri sun, concept, association, 6 categories of hieroglyphic writing, primordial and acquired meaning, compound character, compound word.*

Текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст
текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст
текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст
текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст текст

Список использованной литературы:

1. Karimov A.A. 念, 讀, 看 iyerogliflarining asl va oʻzlashgan maʼnolarini aniqlash (yapon va xitoy tillarining qiyosiy tahlili). // Yaponshunoslik boʻyicha xalqaro konferensiya materiallari. Tsukuba. Toshkent., – 2020.

Ishtirok etish uchun ariza

F.I.Sh. (lotin alifbosida yozing):									
Ish joyi, lavozimi va ilmiy darajasi, unvoni:									
Kerakligini tanlang va belgi qo'ying (√) () Men ishtirok etaman va prezentatsiya qilaman; () oflayn ishtirok etaman; () onlayn ishtirok etaman; () Men faqat konferensiyada ishtirok etaman. () Faqat tezis yuboraman.									
Tezis mavzusi: 									
Ilmiy tezis mavzusi qaysi ilmiy yo'nalishga mos keladi. Kerakli bo'limni tanlang va belgi qo'ying (√) <table border="0"><tr><td>- Tilshunoslik va o'qitishning innovatsion usullari.</td><td>()</td></tr><tr><td>- Tarix, falsafa va madaniyat.</td><td>()</td></tr><tr><td>- Tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik va manbashunoslik.</td><td>()</td></tr><tr><td>- Savdo va iqtisodiy munosabatlarnig rivoji va istiqbollari.</td><td>()</td></tr></table>		- Tilshunoslik va o'qitishning innovatsion usullari.	()	- Tarix, falsafa va madaniyat.	()	- Tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik va manbashunoslik.	()	- Savdo va iqtisodiy munosabatlarnig rivoji va istiqbollari.	()
- Tilshunoslik va o'qitishning innovatsion usullari.	()								
- Tarix, falsafa va madaniyat.	()								
- Tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik va manbashunoslik.	()								
- Savdo va iqtisodiy munosabatlarnig rivoji va istiqbollari.	()								
Nutq tili:	()								
To'plamda e'lon qilinadigan tezis tili:	()								
E-mail:	Telefon raqami:								

Tashkiliy qo'mitaga arizalarni **2026 yilning 1-oktyabrigacha** yuborishingizni so'raymiz.

Bog'lanish uchun mas'ul shaxslar:

+99890 186 77 57 Artikova Ziyoda

+99899 514 89 02 Eshpo'latov Nurali

E-mail: chinese_department@tsuos.uz